



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 506 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinov To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari	158
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi.....	191
	Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna	
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati.....	197
	Inoyatova Zulfiya Xamdammovna	
	Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari.....	199
	Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi	
	Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish	203
	Kayumov Oybek Achilovich	
	Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.....	209
	Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi	
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.....	211
	Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna	
	Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish	214
	Rayimova Shahlo Sobirjon qizi	
	STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari	217
	Toshev Elbek Choriyevich	
	Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli.....	223
	Usmanov Botir Allaberdiyevich	
	Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati.....	227
	Xalilova Dilnoza Furkatovna	
	Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni	230
	Xodiyeva Dilrabo Pirimovna	
	Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education	233
	Yunusova Nodira Akhmadjanovna	
	Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	237
	Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
	The Psychological Impact of Social Media on Youth	242
	Dilfuza Qarshiboyeva	
	Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi	246
	Islamova Dilfuza Dilshodovna	
	Dizatriyali bolalar monologik nutqini innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish.....	250
	Pardayeva Muxlisa	
	Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida bilish jarayonlarning ahamiyati.....	257
	Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi	
	Enhancing the Professional Competence of English Language Teachers.....	259
	Karimova Dilshoda Sodiqjon qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda montessori metodi bo'yicha sezgir davrlar	264
	Tojiakhmedova Maftuna Umarjon qizi	
	"Personal learning assistant" vositalari asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimidagi zamonaviy tendensiyalar tahlili.....	268
	Muradova Maftuna Komilovna, Turobova Ro'zoy Bekmurotovna, Xayrullayev Mo'minbek Anvar o'g'li	
	Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	272
	Ravshanova Dildora Sagdullayevna	
	Raqamli ta'lim sharoitida elektron axborot-ta'lim muhitining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi.....	279
	Temurov Sobirjon Yo'ldoshevich	
	Zamonaviy ta'lim menejmentida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati (boshlang'ich ta'lim misolida) ..	283
	Pardaboyev Doston	
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligida qadriyatlar tarbiyasining amaliy asoslari	286
	Xaydarova Mavluda Mo'yidinjon qizi	



Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari va samarali shakllari.....	292
<i>G'oziyeva Mohlaroyim Qodirxon qizi</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning (aqliy nuqson) ovqatlanish tartibi	295
<i>Sh. M. Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida imlo savodxonligini oshirishda geymifikatsiya o'yini orqali samarali tashkil etish	299
<i>Mergenbaeva Asiya Erkebaevna</i>	
Musiqqa o'qituvchisining pedagogik muloqatining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	304
<i>S. M. Raxmonberdiyeva</i>	
Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish darslarida zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqini rivojlantirish	307
<i>Abdulxamidova Gulnoza</i>	
Ispaniya davlati ijtimoiy hayoti, madaniyati va o'ziga xos ta'lim tizimi	311
<i>Umarova Malika Xisabidinovna, Sabirova Nodira Ibrohimovna</i>	
Ertaklardagi so'zlardan foydalangan holda nutqi rivojlanmagan bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasi	316
<i>G'opporova Mahliyoxonim</i>	
Tarbiya fanida hadislar va milliy qadriyatlarni integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari	319
<i>Axmedov Boburjon Vasikovich</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida o'quv-biluv kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari	324
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Mustaqil ta'lim olish faoliyati tushunchasining pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilmasi (fizika fani bo'yicha).....	328
<i>Esanmurodov Otamurod Boboqand o'g'li</i>	
Oliy ta'limda immersiv yondashuvning mohiyati.....	333
<i>Muradova Maftuna Komilovna, Jontemirova Nozima Abdijabbor qizi</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlari tizimida sportchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	337
<i>Yigitaliyev A. F.</i>	
Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida o'quvchilarning harakat faolligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari.....	343
<i>D. R. Abdusalomov</i>	
Futbolchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi...	348
<i>Mirbabayev Muzaffar Ismatillayevich</i>	
Empirik tushunchalar va ularning hospital pedagogikadagi pedagogik-psixologik roli	353
<i>Sapayeva Mavluda Shanazarovna</i>	
Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash va huquqiy himoya.....	357
<i>Ibragimova Feruza Bahodirxonovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida kongruentlik kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar.....	362
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini tashkil etish	366
<i>Raximov Farxod Maxmudovich</i>	
Haqiqiy materiallardan foydalangan holda o'qishni o'rgatish	370
<i>Axmedov Husen Uzairovich</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion va fiziologik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	376
<i>Ruziyeva Gulsara Temirqulovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyasi.....	380
<i>Nazarov Zokir Abdurahmonovich</i>	
Tafakkur va mantiqiy fikrlash bo'lajak pedagog shaxsining nutq madaniyati omili sifatida	383
<i>A. Sh. Jumayev</i>	
Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarida turizm vositasida tolerantlikni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	386
<i>Abdumannatova Aziza Abdumajit qizi</i>	

Zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	390
<i>Asobayeva Noila Samatovna</i>	
Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish	395
<i>Axmedova Zebixon Siddikovna</i>	
Talaba shaxsini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qo'yilgan pedagogik talablar	399
<i>Boliyev Uchqun Ismatovich</i>	
Translation of Phraseological Units in Mass Media Texts.....	402
<i>Eshmurodova Ziyodaxon Urinbayevna</i>	
Phraseologisms in Modern Russian: A Corpus-Based Analysis of Structural, Semantic, and Functional Dynamics	405
<i>Farkhod Kholmatov</i>	
Yosh sportchilarda sprinterlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin uslubidagi mashqlarning o'rni.....	413
<i>G'oibov Yusufali Buxoraliyevich</i>	
Imitatsion mashqlarni nutqni avtomatizatsiyalash jarayonida qo'llash metodikasi	417
<i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>	
1879-1894-yillarda yevropa va aqshdagi asos soluvchi laboratoriyalar evolyutsiyasi orqali eksperimental psixologiya genezisining qiyosiy-tarixiy tahlili.....	420
<i>Haydarov Farhod Ilnazarovich</i>	
Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi	423
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna</i>	
Bolalarda gigiyeniya qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	427
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Kasbiy refleksiya va portfolio metodining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	430
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna, Kamoliddinova Mahliyoxon Zohidjon qizi</i>	
Практическая работа по развитию логического мышления учащихся начальных классов через дидактические игры	433
<i>Отажонов Ж. М., Мамарасулова М. А.</i>	
Umumta'lim maktablarida "tarbiya" fanini o'qitish jarayonida mavjud muammolar, ularning sabablari va takomillashtirish yo'llari.....	436
<i>Mamirova Shaxnoza Xudoyqulovna</i>	
Word Formation and Vocabulary Enrichment in Modern English and Uzbek Languages	440
<i>Muminova Feruza Muratdjanovna</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari	443
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
Shaxs taraqqiyotining turli bosqichlarida refleksiyaning rivojlanishi	447
<i>N. I. Xalilova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	450
<i>Omanqulova Shohida Nematillo qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvning uyg'unligi	455
<i>O'tkirova Zuhaxon Ahmedjanovna</i>	
Developing Listening and Speaking Skills in Middle School	458
<i>Rakhmonova Dilrabokhon Salokhiddin kizi</i>	
Bolalarda gigiyena qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	461
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Avlodlar nazariyalari haqidagi mulohazalarning nazariy tahlili: baby boomerlar, X, Y, Z avlodlari.....	464
<i>Umarova Sitora Muxlisovna, Sharifova Mahtob Murodjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	467
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Sofoyeva Oysha Davlatyorovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallarni o'rgatishning samarali metodlari.....	470
<i>Solijonova Mavluda Zokir qizi</i>	



Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.....	472
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Chaqiriqqacha harbiy ta'limda talabalarning harbiy ko'nikmalarini shakllantirishda psixologik omillarning o'rni.....	477
Tursunov Shaxzod Ramazonovich	
Bolalarning jismoniy faolligini oshirish va jismoniy rivojlantirish bo'yicha noan'anaviy jismoniy mashqlarning ahamiyati	480
Xalmatova Nasiba Bozorboyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirish muammolari	485
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish ..	488
Yuldoshova Mehriniso Ochildiyevna	
Hosila va uning tatbiqlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar	491
Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li	
Развитие речи у детей как ключевой фактор формирования личности.....	496
Дустова Дилдора Собиржановна	
Boshlang'ich sinflarda geometrik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	498
Imamova Nasiba Xurramovna	
Дидактические основы подготовки будущих педагогов к лекционной деятельности.....	501
Нодира Азаматова	

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INKLYUZIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Omanqulova Shohida Nematillo qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti "Musiq ta'limi" kafedrası
dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ularning alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar bilan samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, pedagogik yondashuvlar, metod va texnologiyalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, inklyuziv kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik asoslar, kasbiy tayyorgarlik, maxsus ta'lim ehtiyojlari, ta'lim texnologiyalari, pedagogik yondashuvlar, differensial yondashuv, integratsiya.

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations for developing inclusive competencies among future teachers. It addresses the professional training of teachers in inclusive education settings, focusing on the formation of skills for effectively working with students with special educational needs. The study also examines effective methods for developing future teachers' inclusive competencies through pedagogical approaches, methods, and technologies. Based on the research results, recommendations are provided for improving inclusive education in higher education institutions.

Key words: inclusive education, inclusive competency, future teacher, pedagogical foundations, professional training, special educational needs, educational technologies, pedagogical approaches, differentiated approach, integration.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические основы развития инклюзивных компетенций у будущих учителей. Рассматриваются вопросы профессиональной подготовки учителей в условиях инклюзивного образования, формирования у них навыков эффективной работы с учащимися, имеющими особые образовательные потребности. Также исследуются эффективные методы развития инклюзивных компетенций будущих педагогов через педагогические подходы, методы и технологии. На основе результатов исследования даются рекомендации по совершенствованию инклюзивного образования в вузах.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инклюзивная компетенция, будущий учитель, педагогические основы, профессиональная подготовка, особые образовательные потребности, образовательные технологии, педагогические подходы, дифференцированный подход, интеграция.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jamiyatda har bir shaxsning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ularning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda sifatli ta'lim berish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki turli imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatadigan, ularning ehtiyojlariga moslashuvchan yondasha oladigan mutaxassis bo'lishi lozim. Bu esa o'qituvchilardan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni, shuningdek, yuqori darajadagi pedagogik kompetensiyani talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga, ularning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Bu jarayon ayniqsa musiqa ta'limida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki musiqa san'ati har bir shaxsning individual imkoniyatlarini namoyon etish uchun qulay pedagogik platforma hisobla-



nadi. O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlat siyosati darajasida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyatga integratsiyalash masalalari belgilangan ^[2: 5-b.]. Shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni ^[1] 4-moddasida "Inson huquqlarini hurmat qilish, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik", 9-moddasida "Inklyuziv ta'lim - barcha shaxslarning imkoniyatlarini hisobga oluvchi tizim", 22-moddasida "Maxsus ehtiyojli shaxslar uchun alohida dasturlar va sharoitlar yaratiladi"¹, - deb belgilab qo'yilgan. Shunga ko'ra Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida inklyuziv ta'lim tamoyillarini amalda tatbiq etishlari zarur. Bu nafaqat qonuniy majburiyat, balki pedagogik faoliyatning sifatini oshirish, har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berishni ta'minlash uchun ham muhimdir.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida oliy ta'lim muassasalari inklyuziv kompetensiyalarni shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim. Ular o'zlarining kasbiy tayyorgarligi davomida turli imkoniyatlarga ega o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi, dars jarayonini moslashtirish va differensial yondashuvlarni qo'llashga tayyor bo'lishlari zarur. Shu bilan birga, maxsus ehtiyojli shaxslar uchun alohida dasturlar, o'quv materiallari va sharoitlar yaratish bo'yicha oliy ta'limda mavjud amaliyotlarni o'rganish ham talabalar uchun muhim tajriba bo'lib xizmat qiladi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilar oliy ta'lim muassasasini tamomlagach, umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim sharoitida samarali faoliyat yuritishga, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni tashkil etishga tayyor bo'ladilar. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki jamiyatda inklyuziv qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir ^[7].

Bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim talablaridan biridir. Inklyuziv kompetensiya - bu o'qituvchining turli xil ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar bilan samarali ishlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish, pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan yondasha olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya o'z ichiga bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifatning uyg'unlashuvini qamrab oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyalari bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Avvalo, kognitiv komponent - bu inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, maxsus pedagogika va psixologiya bo'yicha bilimlarni egallashni anglatadi. Ikkinchidan, amaliy-kommunikativ komponent - turli ehtiyojli o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, individual yondashuvni amalga oshirish, mos metod va usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Uchinchidan, motivatsion-aksiologik komponent - o'qituvchining inklyuziv qadriyatlarini qabul qilishi, barcha o'quvchilarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi va kasbiy faoliyatga mas'uliyat bilan yondashishini ifodalaydi. Inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni oliy ta'lim muassasalarida tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda interfaol metodlar, amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar tahlili, treninglar va pedagogik amaliyot muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi yo'nalishlarida alohida ta'limga ehtiyoji bor talabalar boshqa yo'nalishlarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki zamonaviy o'qituvchi nafaqat fan bilimlariga, balki turli ehtiyojga ega o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi lozim.

Alohida e'tibor bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining inklyuziv kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilishi zarur. Musiqa ta'limi o'zining emotsional va estetik xususiyatlari bilan inklyuziv muhit yaratishda keng imkoniyatlarga ega. Musiqa orqali o'quvchilarning nafaqat ijodiy qobiliyatlari, balki ijtimoiy moslashuvi, emotsional rivoji ham ta'minlanadi.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim: har bir o'quvchining musiqiy qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish, dars jarayonida differensial yondashuvni qo'llash, turli imkoniyatlarga ega o'quvchilarni birgalikda ijodiy faoliyatga jalb etish. Masalan, jamoaviy kuylash, ritmik mashqlar, oddiy musiqa asboblardan foydalanish orqali barcha o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash mumkin.

Shuningdek, musiqa ta'limi o'qituvchisining inklyuziv kompetensiyasi uning emotsional sezgirligi, sabr-toqati, ijodkorligi va moslashuvchanligida namoyon bo'ladi. U o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni tashkil etishi, har bir o'quvchining muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlashi zarur. Bu esa inklyuziv ta'lim muhitida ijobiy psixologik iqlimni shakllantirishga xizmat qiladi.

1 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni // Xalq so'zi. – T., 2020. – 24 sentabr. <https://lex.uz/docs/5013007>

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarining musiqa ta'limi yo'nalishlarida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan talabalar salmoqli o'rin egallashi kuzatiladi. Bu holat, avvalo, musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Ya'ni musiqa insonning emotsional, eshitish, ritmik va ijodiy qobiliyatlariga tayanadi hamda turli psixofiziologik imkoniyatlarga ega shaxslar uchun o'zini namoyon etishning qulay vositasi hisoblanadi. Shu sababli, ayrim jismoniy yoki sensor cheklovlarga ega bo'lgan talabalar ham musiqa yo'nalishida muvaffaqiyatli ta'lim olishi mumkin.

Mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kelajakda umumta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitishga tayyor bo'lishi muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Chunki maktablarda ham inklyuziv ta'lim tobora keng joriy etilmoqda va bu jarayonda musiqa fani barcha o'quvchilarni birlashtiruvchi, ularning ijtimoiylashuviga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari o'zlarining shaxsiy tajribasi orqali turli ehtiyojli o'quvchilarni tushunish, ularga mos metodlarni tanlash va dars jarayonini moslashtirish ko'nikmalariga ega bo'lib boradilar. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlaydi.

Shuningdek, musiqa ta'limi jarayonida qo'llaniladigan jamoaviy ijodiy faoliyatlar - xor ijrochiligi, ansambl, ritmik mashqlar – barcha o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va inklyuziv muhitni tabiiy ravishda shakllantiradi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilar nafaqat fan bilimlarini, balki inklyuziv pedagogik yondashuvlarni ham amaliyotda o'zlashtiradilar.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning inklyuziv ta'lim sharoitida yuqori darajadagi kompetensiyaga ega bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki talabalarga namuna bo'luvchi pedagog sifatida inklyuziv qadriyatlarni o'z faoliyatida namoyon etishlari zarur. Professor-o'qituvchilarning dars jarayonida individual yondashuvni qo'llashi, talabalarning ehtiyojlarini inobatga olishi, qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy psixologik muhit yaratishi bo'lajak o'qituvchilarda shu kabi ko'nikmalarni shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar bilan qurollantirish dolzarb vazifalardan biridir. Zero, professor-o'qituvchining shaxsiy namunasi va kasbiy mahorati bo'lajak o'qituvchilarning kelajakdagi faoliyatiga bevosita ta'sir etadi hamda inklyuziv ta'limning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarda, xususan musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari misolida inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash va amaliy jihatdan asoslash maqsadida bir qator ilmiy-tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida nazariy tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod orqali inklyuziv ta'lim, maxsus pedagogika hamda musiqa pedagogikasiga oid ilmiy-adabiyotlar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalar va ilmiy maqolalar chuqur o'rganildi va tahlil qilindi. Jumladan, inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, uning mazmun-mohiyati, rivojlanish bosqichlari hamda amaliyotdagi o'rni yuzasidan mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi [5, 34-b.]. Bu esa tadqiqotning nazariy poydevorini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish metodidan ham keng foydalanildi. Ushbu metod orqali musiqa ta'limi yo'nalishida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari bevosita kuzatildi, ularda qo'llanilayotgan inklyuziv yondashuvlar, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, darsning tashkil etilish shakllari va metodlari tahlil qilindi. Kuzatish natijalari asosida inklyuziv muhitni samarali tashkil etish omillari aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda modellashtirish metodi muhim o'rin tutdi. Mazkur metod yordamida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik model ishlab chiqildi. Ushbu modelda kompetensiyalarning tarkibiy qismlari, ularni shakllantirish bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlar hamda kutilayotgan natijalar tizimli ravishda aks ettirildi.

Amaliy natijalarni aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Bu jarayonda inklyuziv ta'limga oid innovatsion metodlar, interfaol texnologiyalar va differensial yondashuvlar bevosita ta'lim amaliyotiga joriy etildi hamda ularning samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyalarida ijobiy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, so'rovnomalar va diagnostika metodlari yordamida talabalarning inklyuziv kompetensiyalari darajasi aniqlab olindi. Maxsus ishlab chiqilgan savolnomalar orqali talabalarning inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabati, bilim darajasi, amaliy ko'nikmalari va kasbiy tayyorgarligi baholandi. Diagnostik tahlillar natijasida mavjud muammolar va rivojlantirish zarur bo'lgan jihatlar aniqlashtirildi.

Tadqiqotning metodologik asosini bir qator zamonaviy pedagogik yondashuvlar tashkil etdi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni integratsiyalashgan holda shakllantirishga e'tibor qaratildi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim



yondashuvi orqali har bir talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinib, ta'lim jarayoni moslashtirildi. Shu bilan birga, differensial va inklyuziv yondashuvlar asosida ta'lim jarayonida teng imkoniyatlarni ta'minlash, barcha talabalarni faol ishtirok etishga jalb qilish hamda ularning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi (1-jadval).

1-jadval: Inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish

Inklyuziv kompetensiya turi	Rivojlantirish usuli	Amaliy natija / kuzatuvlar
Nazariy bilim	Ilmiy adabiyotlarni o'rganish, seminarlar	Talabalar inklyuziv ta'limning nazariy asoslarini tushundi
Amaliy ko'nikmalar	Musiq darslarida interfaol metodlarni qo'llash	Talabalar o'quvchilar bilan individual yondashuvni amalda qo'llashni o'rganishdi
Emotsional va ijtimoiy moslashuv	Jamoaviy ijodiy mashg'ulotlar, ansambl ishlari	Talabalar turli imkoniyatli o'quvchilar bilan samarali muloqot qila oldi
Kasbiy motivatsiya	Tajriba-sinov ishlari, mentorlik	Talabalar o'z kasbiy faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishni rivojlantirdi

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning quyidagi pedagogik asoslari aniqlandi:

1. Inklyuziv kompetensiyaning tarkibiy komponentlari

1. Kognitiv komponent - inklyuziv ta'lim nazariyasini bilish;
2. Amaliy komponent - moslashtirilgan darslarni tashkil eta olish;
3. Kommunikativ komponent - turli ehtiyojli o'quvchilar bilan samarali muloqot;
4. Refleksiv komponent - o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish.

2. Inklyuziv ta'lim texnologiyalarining samaradorligi

Tadqiqot davomida quyidagi metodlar samarali ekanligi aniqlandi:

- differensial topshiriqlar;
- individual yondashuv;
- musiqiy terapiya elementlari;
- interfaol metodlar.

3. Tajriba-sinov natijalari

- talabalar inklyuziv kompetensiyalarining rivojlanish darajasi 30–35% ga oshdi;
- o'quvchilarga individual yondashuv sifati yaxshilandi;
- pedagogik moslashuvchanlik rivojlandi.

4. Musiq ta'limining inklyuziv imkoniyatlari

Musiq darslari orqali:

- ijtimoiy integratsiya kuchaydi;
- o'quvchilarning hissiy rivoji qo'llab-quvvatlandi;
- ijodiy faoliyat orqali o'zini ifodalash imkoniyati kengaydi.

Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyili "ta'lim hamma uchun" konsepsiyasiga mos keladi.

Ilmiy manbalarda ham inklyuziv ta'limning samaradorligi qayd etilgan. Xususan, inklyuziv ta'lim o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashi va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi ta'kidlangan ^[5: 56-b.].

Shuningdek, inklyuziv yondashuv o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya va pedagogik mahoratni talab etadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida bugungi kunda eng muhim talablardan biri - uning o'z ustida muntazam ishlashi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni egallashi hamda inklyuziv ta'lim sharoitida samarali faoliyat yuritishga tayyor bo'lishidir. Zero, ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, ayniqsa inklyuziv ta'limning keng joriy etilishi o'qituvchidan yangicha fikrlash, individual yondashuv va yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarni talab etmoqda. Shu bois, bo'lajak o'qituvchi nafaqat o'z fanini chuqur egallashi, balki turli ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantirib borishi zarur.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablari amaliyotida aksariyat sinflarda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarning mavjudligi kuzatilmoqda. Bu esa inklyuziv ta'limning real amaliyotga tobora chuqur kirib borayotganidan dalolat beradi. Shunday sharoitda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar kelajakdagi kasbiy faoliyatiga puxta tayyorlanishi, inklyuziv muhitda ishlashga moslashuvi va zarur kompetensiyalarni egalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar o'quv jarayonidayoq inklyuziv yondashuvlarning mohiyatini anglab yetishi, differensial metodlardan foydalanishni o'rganishi hamda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda dars tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini inklyuziv ta'lim talablari asosida takomillastirish, ularni amaliy jihatdan tayyorlash hamda mustaqil kasbiy rivojlanishga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim sharoitida samarali pedagogik faoliyatni amalga oshirish o'qituvchidan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalar, moslashuvchanlik va yuksak kasbiy mas'uliyatni talab etadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, musiqa ta'limi yo'nalishi inklyuziv muhitni shakllantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, u orqali turli ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish mumkin. Musiqa faoliyatining emotsional va ijodiy xususiyatlari o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, o'zaro hamkorligi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim muhitida ishlashga tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Xalq so'zi. – T.:, 2020. – 24 sentabr. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi. (<https://lex.uz/docs/-5044711>)
5. Qodirova F.U, Pulatova D.A Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. Chirchiq 2022
6. <https://ru.wikipedia.org>
7. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: "Fan", 2008. –B .47. 9
8. UNESCO. Education for All. – Paris, 2015.
9. Ainscow M. Inclusive Education. – London, 2005.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.